

## SHOIR SHE'RIYATIDA FOLKLORIZM (Shafoat Termiziy ijodi misolida)

Muxtorova Mahfuza Shavkatjon qizi  
TerDU o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

### ANNOTATSIYA

Shafoat Termiziy ijodida milliy qadriyatlarga xos bo‘lgan e’tiqod har bir satrida barq urib, ufurib turadi, zero, bu shoirning haqiqiy Surxon elining, baxshilar yetishib chiqqan oilaning farzandi ekanligini yanada isboti ekanligi yaqqol sezilib turadi. Shafoat Rahmatullayev she’riyatida dostonning yetakchi obrazlardan Alpomish alohida o‘rin tutadi va uning she’rlarida boshqa obrazlarning ham faol qo‘llanilishi kuzatiladi.

**Kalit so‘z:** folklor va yozma adabiyot, “O‘zbegim onajonim”, “Alpomish”, “Ona yurt”, “Bir yurtki pari Surxon”.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlар va xalq an’analarining tiklanishi, folklor asarlariga ilmiy qiziqishning ortishi tufayli zamonaviy o‘zbek she’riyatida xalq og‘zaki ijodidagi obraz va motivlarga ko‘p bor murojaat qilish kuchaydi. Folklor va yozma adabiyot munosabati azaldan mavjud bo‘lib, bu muammo milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining roli, unga xos tasviriy vositalar, badiiy shakllardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. Folklordan ijodiy oziqlanish badiiy adabiyot taraqqiyotining turli davrlarida turlicha kechganki, ularning tadrijini bosqichma-bosqich o‘rganish, ijodkorlarning folklorizmlardan foydalanishdagi uslab va mahoratini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ijodkor yozma adabiyotda xalq og‘zaki ijodi janrlariga xos bo‘lgan ma’lum bir syujet, motiv hamda obrazdan ijodiy maqsadda foydalanishi, ularga ijodiy sayqal berishi mumkin. Professor B. Sarimsoqov folklor va yozma adabiyot munosabatlari haqida so‘z yuritar ekan, quyidagilarni aytadi: "Ma’lumki, folklor va yozma adabiyot munosabati o‘z ichiga ijodkor asaridagi oddiy folklorizmdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchillik, milliylik, ijodkorning folklorlardan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari, u yoki bu san’atkorlar mahoratining yunalishi va unda folklor an’analarining ta’siri kabi masalalari bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o‘zaro ta’sir masalalarigacha qamrab oladi"<sup>1</sup>. O‘zbek adabiyotshunosligida o‘zbek

<sup>1</sup> Саримсоқов Б. Фольклор ва ўзбек адабиётига доир изланишлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1975.

she'riyatida folkloarning ta'siri, xalq og'zaki ijodi asosida kelib chiqqan obrazlarning 'talqini kabi masalalarga folklor va o'zbek she'riyati bo'yicha tadqiq qilingan ayrim ishlarda munosabat bildirilgani kuzatiladi<sup>1</sup>. Shu jihatdan Shafoat Rahmatullayev ijodida folkloarning ta'siri masalasiga munosabat birinchi marta tadqiqotchi olim G'. Mo'minovning dissertatsiyasida bildirib o'tilgan<sup>2</sup>.

Shoir Shafoat Rahmatulla Termiziy she'riyatiga nazar soladigan bo'lsak, ijodkorning xalq og'zaki ijodidan samarali foydalangani sezilib turadi. Uning aksariyat she'rlarida folklorga xos ko'pgina obrazlar stilizatsiyasiga guvoh bo'lamiz. "O'zbegin onajonim", "Alpomish", "Ona yurt", "Bir yurtki pari Surxon", kabi she'rlarida Alpomish, Go'ro'g'li, Boychipor, Girot kabi xalq dostonlaridagi yetakchi obrazlar bilan bir qatorda xalq ertaklardagi ot, dev, Qorbobo, qarg'a singari folklorga xos obrazlardan foydalangaligini uchratamiz. Bu esa, albatta, shoirning tug'ilib o'sgan joyi, oilaviy muhiti bilan bog'liqdir. Shoirning bolaligi va maktab yillari o'tgan Sherobod tumani o'zining go'zalligi bilan bir qatorda milliy qadriyatlarga boyligi, xalq og'zaki ijodi bilan ham barchaning tilida dostondir. Shoir ham baxshi akalari qatori xalq og'zaki ijodi namunalaridan bahra olib o'sdi. Shu jihatdan shoir she'riyatida folklor asosidagi obrazlarning qo'llanilishini quyidagicha tasnif qildik:

a) xalq eposlaridagi asosiy obrazlar: – Alpomish, Go'ro'g'li, Barchin; jonivorlar obrazi – Boychipor, G'irot; b) mif va rivoyatlar bilan bog'liq obrazlar – dev, ajdarho, Humo, Semurg', Qaqnus, Ohu; Xizr d) xalq ertaklari ta'siridagi obraz va motivlar – Qorbobo, Qorqiz, Qorodam; e) teomifoligik obrazlar – shayton, farishta, jannat (behisht), do'zax (jahannam) f) xalq qo'shiqlaridagi olma, gul kabi obrazlarning stilizatsiyasi(yunon. mumlangan taxtachaga yozish uchun ishlatilgan tayoqcha, uslub) – muayyan badiiy estetik maqsadlarni ko'zlab o'zga bir ijodkor, davr, adabiy yo'nlish va sh.k.larga xosuslubiy xususiyatlarni qayta tiklashga asoslangan usul<sup>3</sup>)ni ko'ramiz. "Aytish o'rinniki, folklor obrazlari stilizatsiyasi to'rt xil ko'rinishga ega bo'lib, bular epik, ramziy, mifologik va dramatik tur janrlari obrazlari stilizatsiyalaridir. Ilmiy tahlillarga ko'ra, zamonaviy o'zbek she'riyatimizda epik turga mansub obrazlar stilizatsiyasi kuprok kuzatiladi. Masalan, "Alpomish, To'maris,

– № 5. – Б. 33-37.

<sup>1</sup> Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. – Ўзбек тили ва дабиёти. – Тошкент. – 1980. – № 4. – Б.37-45; Мўминов F. Хозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Т., 1994. – Б.56.; Жўрақулов У. Миф ва ижодий жараён // Ҳудудсиз жилва. (Илмий-адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006. – 204 б.; Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2008; Холикова Д. Хозирги ўзбек шеъриятида фольклор анъаналари ва бадиий маҳорат: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Т., 2011, –26 б.; Ҳамдамов У.А. XX аср ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фан доктори (DSc) дисс. автореф. – Т., 2017. – 70 б.

Пардаев З. Истиқлол даври шеъриятида халқона пафоснинг янгиланиши. Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс... – Тошкент, 2017.

– Б. 33.

<sup>2</sup> Мўминов F. Хозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Т., 1994. – Б.43.;

<sup>3</sup> Adab. Lug'ati B.284.

Shiroq obrazlari eng ko‘p stilizatsiya qilingan folklor obrazlaridan sanaladi"<sup>1</sup>. Masalan, shoir Ayol haqida monologida Raқиб эр бошини гарқ этдинг қонга, Қасос майдонида бўлиб Тўмарис” misralarida “To‘maris afsonasi” dan foydalanib, ayollarning mardligi, donoligini ulug‘lagan

Shoirning biografiyasidan ma’lum bo‘ldiki, u kamol topgan oiladagi baxshi ijodkor bolalarga o‘zbek xalq eposi “Alpomish”ning ta’siri kuchli edi. Umuman, mazkur ma’naviy yodgorlik bugungi kun zamonaviy adabiyotimizni qadim folklor bilan uzviy bog‘lab turibdi. “Alpomish” xalq qahramonlik eposida qahramonlik, vatanparvarlik, birodarlik, sadoqat kabi o‘lmas tuyg‘ular kuylanadi. Folklorshunos olim Omonulla Madayev bu haqida shunday yozgandi: “Dostonlar xalq og‘zaki ijodining ma’lum taraqqiyot bosqichidagina shakllangandir. Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan “Alpomish” dostoni esa o‘zbek dostonchiligining shoh asari hisoblanadi. Bu doston – uzbek xalqining butun dunyo xalqlari madaniy xazinasiga qo‘sghan munosib hissasidir”<sup>2</sup>.

Shafoat Rahmatullayev she’riyatida dostonning yetakchi obrazlardan Alpomish alohida o‘rin tutadi va uning she’rlarida boshqa obrazlarning ham faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Shoir Istiqlol madhi yozilgan she’rlarda doston bosh qahramoni nomini tilga olib, undagi yurtga oqilona va odilona boshqaruv haqida so‘z yuritadi. Dostondagi asosiy qahramonga bag‘ishlab “Alpomish” she’rini yozadi. Mazkur epik obrazda nafaqat qahramonlik va jasurlik balki, yurtni oqilona boshqarish siyosati, yurt va vatan erki uchun mardonavor kurashish kabi ezgu xislatlar mujassam. Shoir she’rida Alpomishning ayni shu jihatlari o‘quvchiga yurtni sevishga, Istiqlolni asrab avaylashga da’vat bo‘lib yangraydi.

Yetti, yetmish , yuz yil qolding zindonda sen,  
Asoratda azoblading chindan-da sen.

O‘shanda ham sobit turding iymonda sen,  
Yurtning buyuk timsoli bo‘b balq, Alpomish,  
Sening o‘ziig mangu g‘olib xalq, Alpomish<sup>3</sup>..

Ma’lumki, “Alpomish” dostonida uning bosh qahramoni yurtga boshchilik qilish, qabilalarni birlashtirish, el-yurtni boshqaradigan shaxs sifatida tilga olinadi. Alpomish yetti yillik zindon azobidan qutulganidan so‘ng Toychixon va uning lashkarini yengadi. Uning oldida qalmoqlar yurtiga kimni podshoh qilib qo‘yish masalasi ko‘ndalang bo‘lib turadi. Alpomishning o‘zi bu yurtga podshohlik qila olmas edi. U o‘zining asl elati bo‘lgan Boysun-qo‘ng‘irot xalqini zulmda ushlab

<sup>1</sup> Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номзоди .дисс.афтореф. – Т., 2008; – В.20.

<sup>2</sup> Madayev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent: Ma’naviyat. – 1999. – В. 13.

<sup>3</sup> Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – В. 16.

turgan sotqin Ultontozlar hukmronligidan qutqarishi lozim edi. Oybarchinning to‘rt shart-sinovidan o‘tgan Alpomish uchun o‘z xalqining erki, tinch-faravonligi dostondagi asosiy g‘oyalardan biridir. Shoir Alpomish timsolida ozod yurt, mustaqillikka erishgan xalq siy whole mosini gavdalantiradi: “Zamon keldi, haq joyida topdi qaror , Erk yovlari o‘nglanmas bo‘b topdi zarar. O‘zbekiston – ozod Vatan topdi baror”.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Саримсоқов Б. Фольклор ва ўзбек адабиётига доир изланишлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1975. – № 5. – Б. 33-37.
2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. – Ўзбек тили ва дабиёти. – Тошкент. – 1980. – № 4. – Б.37-45; Мўминов Ф. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. –Т., 1994. – Б.56.;
3. Жўрақулов У. Миф ва ижодий жараён // Ҳудудсиз жилва. (Илмий-адабий мақолалар). – Т.: Фан, 2006. – 204 б.;
4. Мўминов Ф. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Т., 1994. – Б.43.;
5. Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номзоди .дисс.афтореф. – Т., 2008; – В.20.
6. Madayev O. Alpomish bilan suhbat. – Toshkent: Ma’naviyat. – 1999. – В. 13.
7. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – В. 16.